

MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA MILLIY QADRIYATLARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Mukammalxon Murodova

Qo'qon davlat universiteti

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda milliy qadriyatlarining o'rni va ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati yoritilgan. Milliy qadriyatlar asosida shakllanayotgan ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning shaxs kamolotiga, vatanparvarlik, insonparvarlik va ijtimoiy faollik sifatlarini rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali qadriyatlarni targ'ib etishning samarali shakl va uslublari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, ma'rifat, milliy qadriyat, tarbiya, yoshlar, axloq, pedagogik jarayon, madaniyat.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль национальных ценностей в организации духовно-просветительской деятельности и их значение в воспитании молодежи. Анализируется влияние духовно-просветительской работы, основанной на национальных ценностях, на личностное развитие, формирование патриотизма, гуманизма и социальную активность. Также рассматриваются эффективные формы и методы продвижения ценностей с использованием современных педагогических подходов.

Ключевые слова: духовность, просвещение, национальные ценности, воспитание, молодежь, этика, педагогический процесс, культура.

Annotation: This article highlights the role of national values in organizing spiritual and educational activities and their significance in the upbringing of youth. It analyzes the impact of spiritual and educational efforts based on national values

on personal development, patriotism, humanism, and the enhancement of social activity. The article also discusses effective forms and methods of promoting values through modern pedagogical approaches.

Keywords: *spirituality, enlightenment, national values, upbringing, youth, ethics, pedagogical process, culture.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlar ongiga turli g'oyalar va qarashlar kirib kelayotgan bir paytda, ularni milliy ruhda, ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda milliy qadriyatlarga tayangan holda ish olib borish muhimdir. Milliy qadriyatlar – xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi, urf-odatlar, an'analar va ma'naviy boyliklarining mujassam ifodasidir. Ular yosh avlodda milliy g'urur, vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik va mas'uliyat hissini shakllantiradi. Mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy siyosat ham aynan milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va ularni yoshlar qalbiga singdirishga yo'naltirilgan bo'lib, bu borada ta'lim muassasalari, mahalla va madaniyat markazlarining hamkorligi muhim o'rin tutadi. Musiqa bizni turli xil hissiy holatlarga olib borish va atrofimizdagi dunyoni tushunish va talqin qilishga yordam beradigan noyob qobiliyatga ega. Bu qalbimizga chuqur kirib boradigan, o'chmas iz qoldiradigan yuksak san'at turidir. Musiqa olami o'zining jozibadorligi bilan xamma vaqt insonlarni o'ziga maftun etgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida va davlat dasturlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, yoshlar tarbiyasida milliy qadriyatlarning roliga alohida e'tibor qaratilgan. Masalan, Sh.M.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asarida yoshlarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash, ularni milliy g'oya asosida tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi. Pedagog olimlar A.Avloniy, A.Qodiriy, H.Homidiy, M.Oripova va boshqalar o'z

ilmiy izlanishlarida milliy qadriyatlar – insonparvarlik, odob-axloq, mehnatsevarlik va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarni tarbiya jarayonining ajralmas qismi sifatida e'tirof etganlar. Zamonaviy adabiyotlarda esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarning innovatsion shakllari – trening, interaktiv mashg'ulot, milliy qadriyatlar asosida loyihaviy ishlar o'tkazish orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirish yo'llari o'rganilmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Vatanimiz ta'limi keng qamrovli islohotlarni hamda qayta qurish ishlarini amalga oshirishdek murakkab jarayonni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Ulardan ko'zda tutilgan maqsad maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, shu asosida o'quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta'lim to'la ma'noda yangicha tafakkur, sog'lom fikr demakdir. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Shijoatni esa insonga, o'zbek milliy pedagogikasining mumtoz namoyondasi Abdulla Avloniy takidlaganlaridek maktab ilm- ma'rifat baxsh eta oladi. Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga xam ega bo'lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni ma'naviy-ma'rifiy jarayonga singdirish quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O'quvchi va talabalar ongida milliy o'zlikni anglash hissi kuchayadi.
2. Yoshlarning axloqiy me'yorlarga rioya etish madaniyati shakllanadi.
3. Ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmunan boyiydi va milliy ruhda o'tadi.
4. Pedagoglar o'z faoliyatida qadriyatlarga tayanish orqali ta'sirchan tarbiya usullarini qo'llay boshlaydi.
5. Milliy qadriyatlar asosida yaratilgan dastur va loyihalar yoshlar ma'naviyatini mustahkamlaydi.

Demak, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun qadriyatlarni faqat nazariy emas, balki amaliy faoliyatga singdirish zarur. Masalan, “Mehr-oqibat haftaligi”, “Oila qadriyati”, “Ona yurtim – faxrim” kabi tadbirlar orqali yoshlar qalbida iftixor tuyg'usini uyg'otish mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda milliy qadriyatlarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. Ular yosh avlodni barkamol inson, vatanparvar fuqarolar sifatida voyaga yetkazishning asosi hisoblanadi. Milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar nafaqat yoshlarning ma'naviy olamini boyitadi, balki jamiyatda sog'lom ijtimoiy muhitni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy faoliyatni milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Maktab o'quvchilarining ruhiy dunyosini shakllantirishda, ularning kelajakdagi rivojlantirishda musiqa o'qituvchisining xizmati ham kattadir. Musiqa fani o'qituvchisi o'z fanini musiqani sevish, unga ishtiyoq bilan yondoshishi o'qituvchilarni yaxshi Ko'rishi, musiqa san'ati vositalari bilan o'qitish va tarbiyalashga qiziqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmatov X. «O'zbek xalq musiqasi» O'quv qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi nashriyoti, 1998.

- 2.Sh, Jumaboyeva M. "FORMING THE CHILD'S PERSONALITY IN THE PROCESS OF ACQUIRING MUSICAL KNOWLEDGE." Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.11 (2022): 128-132
- 3.SHAVKATOVNA, DJUMABAEVA MUQADDAS. "The Importance of the Sound of Tones in Instilling Elements of National Spirit in the Hearts of Students." JournalNX 7.02: 151-153.
- 4.EB Kobilova.Classical music and youth education Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 12 (9), 126-13047
- 5.QEZ BAKIROVNA.Forming a sense of internationality in students through the traditional music of Azerbaijan International bulletin of appliedscience and technology.IBAST volume issue ...
- 6.QEZ BAKIROVNA.FORMING A SENSE OF PATRIOTISM IN STUDENTS THROUGH THE LIFE AND WORK OF COMPOSER DONI ZAKIROV Published by International journal of Social Sciences & Interdisciplinary ...
- 7.EZ QOBILOVA.Forming A Sense Of Love For The Profession By Teaching Labor Songs To 4th Class Students In Music Culture Lessons.journal of Positive School Psychology 7 (2)
- 8.М Азизхонова, Э Қобилова.ЁШЛАРНИ МУСИҚИЙ МАДАНИЯТИ ВА МАЪНАВИЯТНИ ШАКЛЛАНТИРИШДА МУСИҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ Oriental Art and Culture 3 (1), 51-57
- 9.QE Bakirovna.Theoretical And Methodological Basis Of Overcoming Contradictions In Modern Musical And Educational Practice.Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 1 (1), 117-120
10. E Kobilova, O Sobirova, F Najmiddinov.The importance of music education in the formation of musical culture and spirituality.Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (1), 698-703
- 11.Q Bakirovna, DM Shavkatovna, BS Imomalaiyevich, TO Tursunovich. THE ROLE OF A MUSIC TEACHER IN THE PROCESS OF EDUCATING

CHILDREN'S MORAL FEELINGS. International Journal of Early Childhood Special Education 14 (6)

12.M Azizkhonova, E Qobilova. IMPORTANCE OF MUSIC EDUCATION IN FORMING YOUTH'S MUSICAL CULTURE AND SPIRITUALITY. Oriental Art and Culture 3, 51-57

13.E Qobilova. THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN'S STORIES American Journal Of Social Sciences And Humanity Research 4 (02), 44-49

14.E Qobilova. THE IMPORTANCE OF MUSIC TEACHING IN EDUCATION. QO 'QON UNIVERSITY NEWSLETTER, 12, 99-100

15.EB Qobilova. MORAL EDUCATION AS AN IMPORTANT FAKTOR IN THE FORMATION OF A STUDENT AS A PERSON

Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities 11 (26), 186-189

16.QEZ BAKIROVNA. The Significance Of Interdisciplinary Connection In The Formation Of Music Literacy In Children With Hearing Defect In Music Lessons ONOMÁZEIN 62 1 (62), 1382-1388

17.QEZ BAKIROVNA. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida metodik kompetentlikni rivojlantirish. Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 3 (3), 722-729

18.E Qobilova. Yoshlarda musiqiy madaniyatni shakllantirishda maktab va oila hamkorligining tarbiyaviy ahamiyati. Qo 'qon DPI. Ilmiy xabarlar

19.M Azizxonova, E Qobilova. YoSHLARNI MUSIQIY MADANIYATI VA MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI. Oriental Art and Culture 3, 51-57

20.ЭБ Қобилова. ФОРМИРОВАТЬ ДУХОВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ ПОДРАСТАЮЩЕГО ПОКОЛЕНИЯ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРА ЖАНРА

Oriental Art and Culture 3 (1), 291-295

21.E Qobilova. MUSIQA ONG VA HISLAR O 'RTASIDAGI VOSITACHIDIR Pedagogikada ilmiy izlanishlar 2 (1), 28-31

22.QEZ BAKIROVNA.QADIMIY MUSIQIY SAN'ATNING SHAKLLANISH
JARAYONI.“RAQOBATBARDOS H KADRLAR TAYYO RLAS HDA FAN –
TA'LIM – IS HLAB CHIQARIS H ...

23.E Qobilova.Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari

O'quv qollanma, Farg'ona.“Farg'ona” nashriyoti

